OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA LANDSHAFTSHUNOSTLIK FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Shirinova Muqaddas Shavkat qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida landshaftshunostlik fanini o'qitish metodikasini modulli ta'lim texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mulohazalar keltirilgan. Oliy ta'lim muassasalaridagi o'qitish jarayoni bo'yicha fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Landshaft, metodika, interfaol metodlar, pedagogik asoslar, keys-stadi metodi, aqliy hujum metodi.

Аннотация: В данной статье представлены комментарии к педагогическим основам совершенствования методики преподавания ландшафтоведения в высших учебных заведениях. Обсуждались мнения о процессе обучения в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: ландшафт, методика, интерактивные методы, педагогические принципы, кейс-метод, метод мозгового штурма.

Abstract: This article presents comments on the pedagogical foundations of improving the teaching methodology of landscape science in higher educational institutions. Opinions on the teaching process in higher education institutions were discussed.

Key words: landscape, methodology, interactive methods, pedagogical principles, case-study method, brainstorming method.

Oliy ta'lim muassasalarida geografiya yo'nalishi talabalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning kasbiy malakasiga qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini aks ettiradigan modelini tuzish uchun modellashtirishga nisbatan umumiy yondashuvlarni, uning tuzilishidagi asosiy tarkibiy qismlarni guruhlarga birlashtirish tamoyillarini nazariy jihatdan asoslash zarur.

Mamlakatimizda yaqin kunlargacha chop etilgan pedagogik o'quv adabiyotlarda "Innovatsion ta'lim", "Innovatsion faoliyat" va "Innovatsion jarayonlar" terminlari juda kam kuzatilar edi. Bugungi kunda esa ta'lim turlaridan qat'iy nazar barcha ta'lim sohalarida innovatsion ta'lim shaklidan foydalanish taraqqiyotning asosiy mezoniga aylanib ulgurdi. Innovatsion ta'lim so'zining zamirida yangilikni tashkil qilish, yangilikni o'zlashtirish, yangilikdan foydalanish, yangilikni namoyon etish kabi kompleks faoliyat yotadi.

Innovatsion ta'lim - ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim shaklidir. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979 yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta'lim sohasida innovatsion jarayon – bu ta'lim konsepsiyasidagi, o'quv dasturlaridagi, usul va uslublardagi, tarbiya va o'qitish usullaridagi yangilik va o'zgarishlardir. Ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar so'zining tub ma'nosida pedagogikaning ikkita muhim – o'rganish, umumlashtirish va ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish muammosi va pedagogika fanlari yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish muammosi yotadi. Shunday ekan, innovatsiyaning predmeti va innovatsion jarayonlarning tarkibi, mexanizi bir – biriga o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlar jamlanmasi tarkibida bo'lishi kerak. Aynan, innovatsion faoliyat xizmat ko'rsatish bozorida oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatbardoshlikning asosini yaratibgina qolmay, professor – o'qituvchining kasb mahoratining o'sishini, ijodiy izlanishini, amaliy jihatdan ochib beradi.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat. Ta'limdagi pedagogning innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A.Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi.

«Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.MIrtchyanning bu haqdagi fikri diqqatga sazovar: – «Pedagogik tajriba- sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o'qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, o'qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi».

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

• kasbiy faoliyatning ongli tahlili;

• me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;

• kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;

• dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;

• o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Ta'lim muassasasida pedagogning innovatsion faoliyatini tashkil etish uchun "Innovatsion muhit" shakllangan bo'lishi kerak, ya'niy pedagogik jamoda umuman ta'lim muassasida ijodiy, samimiy do'stona sharoit, unda pedagog-o'qituvchi o'zini erkin xis qila olishi va jamoda ichki intilish moddiy-ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. U muhitda pedagog-o'qituvchi ijodiy fikr yuritishga, intilishga yo'naltiriladi. Natijada, innovatsion jarayon-yangilikni kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimini yangi sharoitlarga ko'rsatkichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishlar sodir bo'ladi.

1-rasm. Pedagogning innovatsion faoliyatiga yondashuv turlari.

Pedagogning innovatsion faoliyatining yondashuvi turlariga qisqacha to'htalib o'tamiz.

Akmeologiya (akme– yunoncha: " oliy nuqta", yetuk, eng yaxshi davr") – rivojlanayotgan insonning ijodkorlik, kashfiyotga intilish, kasbiy faoliyatining yetuklik pog'onasini o'rganish sohasidir. Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv pedagogning kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochishi mkonini beradi.

Kreativlik (lot., ing. "create " – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir. Zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi.

Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi.

"Kreativ pedagogika" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) pedagog-o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;

2) talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish

Davlat ta’lim standartlari va malaka talablari asosida tuzilgan ushbu modelning maqsadi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi o‘qituvchi tomonidan talabalarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash tadqiqot rolli o‘yinlar metodlarini qo‘llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rakhmatov U.E. A perfection of the professional competence of teachers by using of creative works in biology lessons under solving tasks and exercises //European Science Review, Vena. № 3–4. 2018, – P. 225 – 228. ISSN 2310 – 5577

2. Rakhmatov U.E., Shakhmurova G.A. Methodical Instructions of Improving Biology Teachers’ Professional Competence for Conducting Modern Lesson (based on Solutions of Issues and Tasks) //Eastern European Scientific Journal. – №3. –2020. – P. 123 –16. ISSN 2199 –7977.

3. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 www.converter-magazine.info. - P. 485-489. (№10. ISSN:0010-8189). (subscription@converter-magazine.info)

4. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115) (www.geniusjournals.org)